



PIRIMQUL QODIROVNING "HUMOYUN VA AKBAR" TARIXIY ROMANIDA QO'LLANGAN NOVERBAL MULOQOTNING KINESTIK VOSITALARI

Dildora Ro'zimurotova Ravshanovna

Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Toirova Guli Ibragimovna

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori Filologiya fanlar doktori

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muloqot va uning noverbal muloqot turi haqida so'z boradi. Uning kinestika, takesika, proksemika, pantomimika kabi bo'limlari to'g'risida ma'lumot berilib, noverbal muloqotning kinestik bo'limlariga Pirimqul Qodirovning, „Humoyun va Akbar“ asari asosida misollar keltiriladi. Kinestik vositalar qanday ma'noda qo'llangani va bitta gapda ketma-ket qo'llangan imo-ishoralar misollar orqali yaqqol ko'rsatilib, tushuntirib o'tiladi.*

Annotation: *This article talks about communication and its non-verbal communication type. It provides information about its sections such as kinetics, tactesis, proxemics, pantomime, and gives examples of kinetic sections of non-verbal communication based on the work of Pirimkul Kadirov, "Humayun and Akbar". Kinesthetic tools the meanings used and the gestures used consecutively in one sentence are clearly shown and explained through examples.*

Аннотация: *В данной статье говорится об общении и его невербальном виде общения, приводятся сведения о таких его разделах, как кинетика, тактезис, проксемика, пантомима, а также приводятся примеры кинетических разделов невербального общения на основе творчества Пиримкула Кадырова, «Хумаюн и Акбар». Кинестические средства, используемые значения и последовательно используемые жесты в одном предложении наглядно показаны и объяснены на примерах.*

Kalit so'zlar: *muloqot, noverbal muloqot, kinestika, proksema, takesika, pantomimika, kinetik belgilar, nutqsiz kommunikatsiya, mimika, imo-ishora.*

Key words: *communication, non-verbal communication, kinetics, proxema, takesika, pantomimic, kinetic signs, non-verbal communication, mimicry, gesture.*

Ключевые слова: *общение, невербальное общение, кинетика, проксема, такэсика, пантомимика, кинетические знаки, невербальное общение, мимика, жест.*

KIRISH

Insonning uni o'rab turgan olamga o'zaro ta'siri obyektiv munosabatlar tizimida namoyon bo'ladi. Obyektiv munosabat va aloqalar so'zsiz har qanday real guruhlarda



paydo bo'лади. Guruh a'zolarining bu obyektiv o'zaro munosabatlari subyektiv shaxslararo munosabatlarda aks etadi. Har qanday ishlab chiqarish odamlarning o'zaro birlashishini talab qiladi. Hech bir kishilik jamiyatida odamlar bilan munosabat o'rnatilmasa, ular bir-birini to'g'ri tushunmaydi, to'laqonli birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olmaydi. Masalan, o'qituvchi, o'quvchilarga biror narsani o'rgatish uchun ular bilan munosabatga kirishish kerak. Muloqot kishilarning hamkorlikdagi faoliyati, ehtiyojlari asosida tug'iladigan, ular o'rtasidagi aloqa rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot hamkorlikdagi faoliyat qatnashchilari o'rtasida axborot almashinishni o'z ichiga oladi, bu muloqotning kommunikativ ko'rinishida ifodalanadi. Odamlar bir-biri bilan munosabatga kirishishda tildan muomala vositasi sifatida foydalanadilar. Muloqotning ikkinchi jihati muomalaga kirishuvchilarning o'zaro ta'siridir. Bunda faqat so'zlar emas, balki harakat va holatlar ham almashinadi. Masalan, sotuvchi bilan xaridor o'rtasida biror so'z aytmasdan muomalaga kirishish mumkin. Muloqotning uchinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning bir-birini idrok qilishidir. Muomalaga kirishuvchilarning bir-birini to'g'ri tushunishi muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, muloqotning shartli uch tomonini ajratish mumkin: kommunikativ (axborot berish), interaktiv (o'zaro ta'sir) va perseptiv (o'zaro idrok qilish).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Paralingvistik vositalarga oid tushunchalar dastlab 1644 yili Angliyada D. Bulverning "Nutq va muloqot qiluvchi imo-ishora harakatlarini ifodalovchi qo'lning tabiiy tili va xronologiyasi" nomli asarida tadqiq qilingan. Uning ilmiy nazariyasi asosida 1650-1670 yillar oralig'ida I. Shlezinger, L. Namir, R. Berdvistel, E. Klim, U. Stokoeva U. Belludji kabi izlanuvchilar va tadqiqotchilarning paralingvistik vositalarga oid ilmiy ishlari dunyoga kelgan. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa jahon tilshunosligida nutqda verbal vositalar bilan bir qatorda noverbal vositalarni turli aspektlarda o'rganishga e'tibor kuchaygan. Jumladan, F. Poyatos, G. Treyger, D. Shifrin, I. Yildirim, D. Eryilmaz, Sh. Ruxi, G. Kolshanskiy, T. Nikolaeva, A. Reformatskiy, G. Kreydlin, T. Vlasova, A. Plaxotnikov, E. Borisova, R. Yakobson, A. Nurmonov, A. Sobirov, M. Saidxonovlar lingvistikaga oid; N. Gunduz, F. Serdjant, D. Abduazizovalar ijtimoiy lingvistikaga oid; Safarov pragmalingvistikaga oid; I. Gorelov psixolingvistika fanlari bilan bog'liq holda tadqiqot ishlarini olib borgan[6]. Tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida imo-ishora harakatlarini tizimlashtirish, tartibga solish va mazmun-mohiyatini anglatuvchi yagona izohli lug'atni yaratish ustida izlanishlar olib borgan. Paralingvistika haqidagi tadqiqot ishlari fonetik hodisalar sifatida 1930-yilda N. Yushmanov tomonidan "G'ayritabiiy fonetika" haqidagi asarida ham o'rganilgan. Olimlarning fikricha paralingvistik vositalarda g'ayritabiiy fonetik hodisalarga nutqda hosil bo'ladigan kanonik tovushlar va tovush birikmalarining o'ziga xos turlari ham kiradi. G'ayritabiiy fonetika elementlaridan badiiy nutqda ekspressiv-tasviriy vosita sifatida foydalanish mumkin, masalan, qushlarning kuylashini tasvirlashva boshqalar. [6] Odamlar muloqot jarayonida so'zlardan tashqari, ya'ni verbal vositalardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlar, holatlar, kulgu, ohanglar va boshqalardan ham foydalanadilar. Qiliqlar, mimika, ohanglar, to'xtashlar (pauza), hissiy



holatlar, kulgu, yig'i, ko'z qarashlar, yuz ifodalari va boshqalar o'zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo'lib, ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to'ldiradi, ba'zan esa nutqli muloqotning o'rnini bosadi, bunday vositalarni noverbal vositalar deyiladi.[2] Flora Devis (1976) imo-ishoralarning ahamiyati haqida to'xtalgan, odamlar odamlarga xabar uzatganda pozalar, tana pozitsiyalari va harakatlar hamda ishoralar ovozli signallar kabi muhim ahamiyatga ega. Muloqotda harakatlardan tortib turli xil noverbal elementlar mavjud va odamlar tovushlar bilan gaplashganda qabul qiladigan pozitsiyalar ham shular jumlasidandir.[3] Jahon tilshunosligida paralingvistika fani deyarli barcha tillarda o'rganilgan bo'lsa-da, ularda noverbal vositalar verbal vositalarga nisbatan asosan ikkilamchi komponent sifatida qarab kelinmoqda. Natijada nutqda verbal vositalarning imkoniyati cheklanganda, noverbal (paralingvistik) vositalarni birlamchi (mustaqil) muloqot vositasi o'rnida qo'llash masalasi nazardan chetda qolib ketgan, noverbal vositalarning struktur tuzilishi tugal ishlab chiqilmagan, verbal va noverbal vositalarning o'zaro munosabatlari bir tomonlama tasniflanib, noverbal muloqotni ifodalovchi vositalarning stilistik, etnopsixologik, lingvopragmatik aspektlari va nutqda namoyon bo'lishining grammatik jihatlari aniqlanmagan. Shundan kelib chiqqan holda hozirgi zamon tilshunosligida diplomatik, iqtisodiy, siyosiy va turistik muloqotlar chog'ida madaniyatlararo farqlarning yuzaga kelishini o'rganish tilshunoslar e'tiborini alohida jalb etgan eng dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.[6] Noverbal muloqot va xulq-atvor to'g'risidagi ilmiy izlanishlar 1872-yilda Charlz Darvinning "Insonlar va hayvonlarda emotsiyalar ifodasi" nomli asarining nashriyoti bilan boshlandi. O'sha vaqtdan buyon, so'zlersiz muloqot va xatti-harakatlarning turlari, ta'siri va ularning ifoda etilishi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi. [8] Kinesika atamasi ilk bor fanda amerikalik antropolog Rey Birdvistell tomonidan qo'llangan. Uning olib borgan tadqiqotlari natijasida kinesikani o'rganish birmuncha rivojlangan. Kinetik belgilar tizimi imo-ishoralar, mimika va pantomimikadan iborat. Masalan, rost so'zlayotgan kishi ochiq kaftlarini ko'rsatishdan qo'rqmaydi. Aksincha, yolg'onchi ularni berkitishga harakat qiladi. [4] Suhbatdoshdan o'zini yuqori tutish belgilaridan biri — butun kaft cho'ntakda bo'lib, bosh barmoqning tashqariga chiqarib qo'yilganligidir. Shubhalanuvchanlikni, odatda, og'izni qo'l bilan himoyalash, burunga tegib qo'yish, qovoqlami silab qo'yish, quloq ortini yoki bo'yinni qashlab qo'yish bildirib qo'yadi. Dahanni silab-silab qo'yish qaror qabul qilishga qiynalishni ko'rsatadi. Asabiylik holati kishining biror narsaga — bilak uzugi, soati va shu kabilarga hech qanday maqsadsiz qayta-qayta tegib turishi ostiga yashirinadi. Stulning ustiga «minib», oyoqlami keng yozib o'tirishdan odamdagi dominantlikka (ustunlikka, hukmronlikka) moyillikni sezish mumkin. Oldinga chiqarilgan oyoq, ayniqsa, uning uchi bilan yer depsinayotgan bo'lsa, dominantlik yaqqol namoyon bo'ladi. Bosh orqasida chalishtirilgan qo'llar, ayollarda belga tiralgan mushtlar ham dominantlikka intilish munosabatidan darak beradi. Kiyimdagi yo'q changlarni qoquvchilar bunday harakati bilan suhbatdosh fikriga e'tiborsizligini yoki qo'shilmasligini ko'rsatadi. Qo'llarini boshining orqasiga o'tkazib, oyoqlarini chalishtirib o'tirgan kishi vaziyat to'la uning



nazorati ostida, deb hisoblaydi. O'tirganda qo'llarni tizzaga qo'yish harakatga darhol tayyorlikni bildiradi. Suhbatni tugatmoqchi bo'lgan kishi qo'llarini tizzasiga qo'yib, qaddini biroz oldinga egadi. Odam gapira turib oyoqdan oyoqqa ko'chaversa, tezroq ketishga harakat qilayotganligini, suhbat unga yoqmayotganligini yoki shoshayotganligini taxmin qilish mumkin. Ko'krak qafasini berkitish himoyalaniş alomatidir. Bunda qo'llar ko'krak qafasiga chalishtirilgan, qaddi-qomat egilgan bo'lishi mumkin. Agar kishi dahanini kafti bilan tirab o'tirgan bo'lsa. bu ko'pincha diqqat bilan tinglayotganligi va o'ylanib qolganligini bildiradi. [5] Kundalik muloqotda odamlar ko'proq quyidagi fanlar o'rganadigan muloqotning noverbal vositalaridan foydalanadilar: kinestetika (inson hissiyotlarining tashqi ifodalanishi), mimika (yuz mushaklarining harakati), imo-ishoralar (tana alohida qismlarining ishoratli harakatlari), pantomimika (butun tana: gavda holati, qomat, egilish, yurish harakatlari), takesika (muloqot vaziyatidagi yaqinlashishlar: qo'l siqish, o'pishish, tegib ketish, siypalash, itarib yuborish va h.k.), proksemika (odamlarning muloqot vaqtida fazoda joylashishi, inson aloqalarida quyidagi masofalar sohalarini ajratadilar: yaqinlik sohasi (15-45 sm), shaxsiy yoki xususiy soha (45-120 sm), ijtimoiy soha (120-400 sm), ommaviy soha (400 smdan ortiq). [1]

Qarsak chalmiq – Otini burib orqaga qaytayotgan Hamidabonu Xonzodabegimning so'zini eshitmagan bo'lsa ham, uning *qarsak chalgani* ko'rib, o'zida yo'q suyundi.

Qo'lini ko'ksiga qo'yib qulluq qilmoq – Hamidabonu hayajon ichida otini tolora tomonga burdi-da, *qo'lini ko'ksiga qo'yib*, Xonzodabegimga *qulluq qildi* (hurmat ma'nosida qo'llangan).

Qo'lini o'pmoq – Odatga binoan, Hamidabonu uning qo'lini ikki qo'llab oldi-yu, bir tizzasini yerga tirab, bayroqni o'p gandek ixlos bilan o'pdi. (hurmat ma'nosida)

Kinoyali jilmaymoq – Humoyun *kinoyali jilmaydi*.

Yuzi tundlashmoq – Humoyun hozir qamal azobidan qiynalayotgan Chinor qal'asidagi odamlarini ko'z oldiga keltirdi-yu, *yuzi tundlashdi*.

Lab burmoq – Said Xalil Xo'ja Husaynning elchilikni eplay olmaganidan quvonganday labini burib: – Ana xolos! – deb qo'ydi.

"Ketimdan boring" ishorasi – Said Xalil bog' darvozasi tomonga o'tar ekan, Alvaro Pakaviraga "ketimdan boring!" degan ishorani qildi.

Jilmayib bosh irg'adi – Nizom kemanding pastki tor qavatida qator eshkakchilar orasida o'tirgan ko'yicha orqadagi kemanding ochiq sahnida turgan Hamidaga *jilmayib bosh irg'adi*.

Istehzo bilan tikilmoq, jilmaygan lablar – Sherxonning ko'zlari Bayramxonga "sen kim bo'libsunki, mendan sodiqlik talab qilursen?" degandek sovuq istehzo bilan tikildi, ammo uning istar-istamas jilmaygan lablaridan: -Xulosangiz ma'qul,- degan so'zlar eshitildi.

Miyig'ida kulmoq, bosh irg'amoq – Afzalbek shu payt podsho o'rnida avvalgi sodda eshkakchi Nizomni ko'rganday bo'ldi-yu, miyig'ida kulimsirab bosh irg'adi.



Ko'z urishtirmoq, lab burmoq – U hali boshqa chavandozlarga o'xshab egarga mixlanganday mahkam o'tirishga odatlanmagan, buni ko'rgan ba'zi bek-u navkarlar o'zaro ko'z urishtirib, zimdan lab burishardi.

G'azab bilan tikilmoq – Humoyun Said Xalilga *g'azab bilan tikildi*: – Siz Hindolni razillarcha adashtirgansiz.

Lab burmoq – A'yonlar Akbarga quyuq ta'zim qilib, toj-u taxt bilan muborakbod etayotganda, uning ko'zlaridan yosh oqayotgani ba'zilar hayratga soldi, ba'zi beklar "hali bu bola-ku!" degandek kishi bilmas *lab burib qo'yishdi*.

Bosh chayqamoq – Hamidabegim yig'lab *bosh chayqadi*: – Tirikliklarida birga yashagani qo'ymadilar, nuqul bizni ayirdilar.

Qosh chimirmoq – Biroq me'mordan sarf-xarajati qanaqa bo'lishini so'rab bilan sari qoshi chimirilib, avzoyi o'zgarib boshladi.

Labini tishlamoq – Hamidabegim "aytma" deganday labini tishlab qaradi.

Qovog'ini uymoq – Janob Shohqulibek, – dedi Akbar qovog'ini uyib, – siz men bilan fil urishtiradi ham darajaga yetib qoldingizmi?

Yuzi burishmoq – Adhamjon bu noxush hodisani eslaganda *yuzi birdan burishib*: – Saroyda emas, daryo bo'yida, – dedi.

Yuzi alamdan ko'karmoq – Muzaffarshoh qirq yoshlardagi, semiz, qora odam ekan, o'zi shuncha yil hukmronlik qilgan saroyini endi Akbar egallab olganini ko'rib, yuzlari alamdan ko'karib ketdi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda verbal va noverbal muloqotning har ikki turi ham keng qo'llaniladi va bularga bo'lgan ehtiyoj ham katta sanaladi. Bu ikki muloqot turini bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni birini ikkinchisidan ayri holda tassavur etish qiyin. Muloqotning ikki turini ham qo'llash so'zlovchilar o'rtasidagi gaplarga aniqlik kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduraximova M. Tilshunoslikda verbal va noverbal muloqot. RESEARCH AND EDUCATION Volume-1, Issue-2, 2022.
2. Alimova M.R. Muloqotda noverbal vositalarning o'rni va ahamiyati. Journal of new century innovations volume-27, issue-6, April 2023
3. Axunova M.A. Lingvistik hurmat kategoriyasida noverbal muloqot. Journal of new century innovations volume-26, issue-4, April 2023.
4. Berdimuratova M. Nutqda kinestik xatti-harakatlarni ifodalovchi til birliklarining qo'llanilishi. INNOVATION SCIENCE AND RESEARCH INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL Volume-1, Issue-3, 2023.
5. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Turon-iqbol, 2006.



6. Mirzayeva D.I, Xolmatova Z.A. Paralingvistika tarixi, hozirgi davr noverbal vositalari va ularning reklamadagi ahamiyati. Fars Int J Edu Soc Sci Hum Volume-10, Issue -11, 2022.
7. Qodirov P. Humoyun va Akbar. Roman. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari,2018.
8. Toirova G., Oripova P. Gratitude expresses pragmatic meanings, Published March2, 2024, Multidisciplinary and Multidimensional journal ,- B.280-284
9. Toirova G., Oripova P. Minnatdorchilik nutqiy aktining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, Google schoolor jurnali, 2024. –B. 96-100
10. Verwellmind sayti.